

RAVISHLARNING MA’NO TURLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Qizlarxon Imomova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

Samixboyevna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida ravishlarning ma’no turlari lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Ravishlar gapda harakatning tarzini, joyini, vaqtini, sababini, maqsadini va miqdorini ifodalovchi muhim so‘z turkumi sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, ravish so‘z turkumining muammoli masalalari, tilshunoslik sohasida izlanish olib borgan olimlarning fikrlari kiritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ravish so‘z turkumi, holat ravishi, miqdor-daraja ravishi, maqsad ravishi, sabab ravishi, o‘rin-payt ravishi.

Tilshunoslikning muammoli masalalaridan biri ravish hisoblanadi. Taniqli tilshunos olim V.V. Vinogradov ravish so‘z turkumiga “mustaqil so‘zning hech bir guruhiga sig‘may qolgan so‘z ravish turkumiga yig‘ilgan” deb baho bergan edi. Uning ma’no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g‘arb tilshunosligi ravishni ma’no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo‘lmagan belgi – o‘zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Biroq o‘zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag‘ishlab yozilgan ko‘plab ilmiy adabiyot va darslikda ravishning o‘zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan.¹

Asosan harakatning, qisman predmetning holat, miqdor va belgisini ifodalovchi so‘zlar ravish so‘z turkumini tashkil etadi. Ravishlar gapda hol vazifasini bajarib, ko‘p hollarda fe‘lga bog‘lanib keladi. Shuningdek, ravish so‘z turkumi o‘rin, payt ma’nolarini ifodalashi bilan ot so‘z turkumiga, holat va miqdorni ifodalashi bilan esa sifat hamda son so‘z turkumlariga yaqin. D. Yuldashevaning fikricha, ravishlarga bir qator otlar va sifatlar juda yaqin turadi. Kecha kunduz, tong, oqshom kabi payt otlari; barvaqt, bir mahal, kech kabi payt sifatleri; atrof, tegra, o‘rta, ichkari, tashqari, o‘ng, chap, old, orqa kabi o‘rin otlari; oldin, keyin, yuqori, past, baland kabi o‘rin sifatleri; oz, ko‘p, mo‘l, butun, to‘la kabi miqdor sifatleri shular jumlasidandir.² Ra’no Sayfullayeva ravishning yuqoridagi mustaqil so‘z turkumlaridan farqli jihatini so‘z o‘zgartiruvchi, shakl yasovchi qo‘shimcha bilan birika olmasligida, deb tavsiflaydi. Tilshunoslik kitoblarida ravish so‘z turkumiga kiruvchi so‘ngra, ko‘tara, ostin-ustun so‘zlari tarkibidagi

¹ R. Sayfullayeva, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Tosh-2009.

² Yuldasheva Dilorom, O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi Buxoro-2021. 420-b

qo‘shimchalar qadimgi davrda keng iste‘molda bo‘lgan hamda ravish tarkibida qotib qolgan.

Ravish so‘z turkumi holat, miqdor-daraja, o‘rin-payt, maqsad, sabab kabi ma‘no turlariga bo‘linadi.

Ravishlarda ikki leksemaning juft holda ishlatilishi anchagina uchraydi; bunda asosan “umumlashtirish” ma‘nosi ifodalanadi:

1) Holat ravishlari juft holda ishlatiladi: ochin-to‘qin, ochiq-oydin, to‘la-to‘kis, eson-omon || omon-eson, uzil-kesil, apil-tapil kabi;

2) Payt ravishlari juft holda ishlatiladi: yozin-qishin, erta-kech, tun-kun, avval-oxir kabi. Ayrim juft leksemalardan “chama”, “taxmin” ma‘nosi ifodalanadi: erta-indin, bugun-erta kabi;

3) O‘rin ravishlari juft holda ishlatiladi: ostin-ustun, oldin-keyin (oldinketin); nari-beri kabi.³

Holat ravishi. Harakatning holatini, tarzini bildiradi va qanday?, qay holda?, qay tarzda? so‘roqlariga javob bo‘ladi: mardlarcha, to‘satdan, astoydil, majburan, ustma-ust, ketma-ket.

Miqdor-daraja ravishi. Miqdoriy sifat va darajani bildirgan ravishlar miqdor-daraja ravishlari hisoblanadi hamda qancha? so‘rog‘iga javob bo‘lishi bilan son so‘z turkumiga yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto‘liq ziddiyatda belgisi a‘zo sifatida yuzaga chiqadi.⁴

Miqdor-daraja ravishlarini ichki semantik o‘ttenkalariga ko‘ra shunday guruppalarga bo‘lish mumkin:

1) kuchaytiruv;

2) kuchsizlantiruv.

Kuchaytiruv ma‘nosini ikki yo‘l- tasdiq yoki inkor yo‘li bilan anglatish mumkin: eng, juda, g‘oyat, nihoyatda, yanada, tag‘in, mutlaqo, tamomila, tamoman... kabi ravishlar tasdiq ma‘nosini ifodalaydi. Xech, sira, asti, aslo, zinhor, hargiz kabilar inkor ma‘nosini ifodalaydi.

Kuchsizlantiruv ma‘nosini bildiruvchi ravishlar quyidagilar: arang, zo‘rg‘a, hiyla, xiyol, sal, picha, oz, ko‘p, kam, qisman, bir oz, sal-pal, oz-moz kabi.⁵

O‘rin-payt ravishi. Qayerga?, qayerdan?, qayerda? so‘roqlariga javob bo‘lib, harakatning yuz berish o‘rnini bildiradi. Masalan: uzoqda, orqada, yaqindan, u yerda, olg‘a, ichkari, har taraf.

³ Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Tosh-2006. 476-B

⁴ R. Sayfullayeva, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Tosh-2009. 414-b

⁵ X. Комилова. Ш. Ш. оаодурахмонов, X. Ғозиев А. С. ПУШКИН НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ЎЗБЕК ТИЛИ.

Maqsad ravishi. Harakatning nima maqsadda bajarilganini bildiradi: ataylab,jo‘rttaga, qasddan, azza-bazza.

Sabab ravishi. Fe‘ldan anglashilgan harakatning sababini bildiradi: noilojlikdan,chorasiz,bekordan-bekorga.

Bir qancha tilshunoslarning fikricha,ravish gapda kesim bilan bitishib, uni aniqlab kelishidan tashqari,o‘zi ham boshqa so‘zlarni boshqarib kelishi mumkin.Bunda ravish o‘ziga taalluqli so‘zlar bilan birikmali gap bo‘lagini tashkil etadi:

- 1.Shoir ko‘rsatgan joydan ko‘ra quyiyoqqa tiz cho‘kdi. (Oybek).
- 2.Shahar bilan birga uning quruvchilari ham o‘sib bordi. (P.Qodirov).

Ravishlar ma’no turlarini o‘rganish orqali so‘zlarning gapdagi funksiyasi, ma’no ohangi va uslubiy xususiyatlari chuqurroq anglashiladi.Kontekstga qarab ravishlar ko‘p ma’nolilikka ega bo‘lishi, ularning funksional imkoniyatlari kengayishi mumkin. Shu bois ravishlarning semantik tahlilini yanada chuqurroq o‘rganish, ularni uslubiy jihatdan sinchiklab tahlil qilish lingvistik izlanishlar uchun muammoli masala bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.R.Sayfullayeva, Hozirgi o'zbek adabiy tili,Tosh-2009.414-B
- 2.Yuldasheva Dilorom ,O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi Buxoro-2021.420-B
- 3.Sh.Raxmatullayev,Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Tosh-2006.476-B
- 4.X . Комилова. III . III оаодурахмонов, X . Ғозиев А . С. ПУШКИН
НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ЎЗБЕК
ТИЛИ.
- 5.<https://upraktika.uz/promo/material/content/topic/3133>
6. Ғуломов А., Қосимова Н. Она тили методикаси. – Бухоро: Университет, 2004.